“SEHRLI TO‘LOV”
AKSIYASINI O‘TKAZISH QOIDALARI

Toshkent sh. «16» noyabr 2026-yil

ATAMA VA TA’RIFLAR

Aksiya – “Sehrli to‘lov” aksiyasi.

Aksiya tashkilotchisi – AloqaBank, yuridik manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, O‘qchi ko‘chasi, 2-uy, MFO: 00401, STIR: 200829053 (bundan buyon matnda “Tashkilotchi” yoki “Bank” deb yuritiladi).

Aksiya hamkori – Mastercard Middle East Africa FZ-LLC, manzil: Mastercard Building, Al Falak Street, Dubai Internet City, P.O. Box 500003, Dubay, Birlashgan Arab Amirliklari (bundan buyon matnda “Hamkor” deb yuritiladi).

Aksiya operatori – “P-4-P” mas’uliyati cheklangan jamiyati, manzil: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Salar MFY, Oybek ko‘chasi, 65-uy — O‘zbekiston Respublikasi hududida Hamkorning vakolatli hamkori sifatida sovrinlarni xarid qilish va g‘oliblarga topshirish, shuningdek, sovrinlar bo‘yicha soliq agenti vazifasini bajaruvchi tashkilot (bundan buyon matnda “Operator” deb yuritiladi).

Ishtirokchi – Bank tomonidan emissiya qilingan istalgan turdagi Mastercard bank kartasi egasi bo‘lgan va ushbu qoidalarda ko‘rsatilgan shartlarni bajargan jismoniy shaxs. Aksiyada ushbu bank kartalarining virtual shaklidan ham foydalanish mumkin.

Mastercard kartasi – Bank tomonidan emissiya qilingan, istalgan turdagi va istalgan valyutadagi Mastercard xalqaro to‘lov tizimining bank kartasi (plastik yoki virtual shaklda).

To‘lov servisi – Apple Pay yoki Google Pay to‘lov servisi bo‘lib, mos keladigan mobil qurilmaga ulangan (tokenlashtirilgan) Mastercard kartasi orqali kontaktsiz to‘lovni amalga oshirish imkonini beradi.

Xarid – Mastercard kartasi bilan To‘lov servisi orqali POS-terminalda kontaktsiz usulda amalga oshirilgan tovar, ish yoki xizmatlar uchun muvaffaqiyatli naqd pulsiz to‘lov (O‘zbekiston Respublikasi hududida yoki xorijda).

POS-terminal – savdo va xizmat ko‘rsatish korxonasining naqd pulsiz to‘lovlarni qabul qilish uchun mo‘ljallangan elektron qurilmasi.

Aksiya bosqichi – Aksiya muddatining bir qismi bo‘lib, uning yakunlari bo‘yicha g‘olib aniqlanadi (ushbu qoidalarning 2.2-bandi).

Xaridlar summasi – Ishtirokchining Aksiya bosqichi davomida barcha Mastercard kartalari bo‘yicha amalga oshirgan Xaridlarining jami summasi; har bir bosqich uchun alohida hisoblanadi.

Sovrinlar – 1 (bir) dona Apple iPhone 18 Pro smartfoni va 1 (bir) dona Apple MacBook Air noutbuki (ushbu qoidalarning V bo‘limi).

Yutuq o‘yini – bosqich shartlarini bajargan Ishtirokchilar orasidan g‘olibni tasodifiy aniqlash tartibi.

G‘olib – yutuq o‘yini natijasida tasodifiy tanlangan va ushbu qoidalarga muvofiqligi tekshiruvidan o‘tgan Ishtirokchi.

Nomaqbul operatsiyalar – to‘lovlarni sun’iy ravishda bo‘lish, soxta savdo, manipulyatsiya, qaytarish yoki Aksiya shartlarini boshqa tarzda suiiste’mol qilish belgilari mavjud bo‘lgan operatsiyalar.

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu qoidalar Tashkilotchining rasmiy hujjati hisoblanadi va Aksiyada ishtirok etuvchi barcha shaxslar tomonidan amal qilinishi majburiydir.

1.2. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida Bank tomonidan Hamkor bilan birgalikda Mastercard kartalari egalari orasida o‘tkaziladi. Aksiyaning maqsadi — Mastercard kartalari bo‘yicha mobil qurilmalar orqali kontaktsiz to‘lovlarni rag‘batlantirish.

1.3. Aksiya faqat reklama xususiyatiga ega bo‘lib, lotereya yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yin hisoblanmaydi. Aksiyada ishtirok etish uchun to‘lov undirilmaydi va Ishtirokchilar Aksiyada ishtirok etish bilan bog‘liq hech qanday mulkiy tavakkalchilikni o‘z zimmasiga olmaydi.

1.4. Axborot materiallari, jumladan e’lonlar, xabarnomalar, tushuntirishlar va boshqa xabarlar quyidagi manbalarda e’lon qilinadi:

- “Zoomrad” mobil ilovasida;
- www.aloqabank.uz rasmiy saytida;
- Bankning ijtimoiy tarmoqlaridagi rasmiy sahifalarida;
- Bankning rasmiy YouTube sahifasida.

1.5. Aksiyada ishtirok etish ixtiyoriy hisoblanadi. Ishtirok etish uchun ro‘yxatdan o‘tish talab qilinmaydi: ushbu qoidalardagi shartlarning bajarilishi Ishtirokchining qoidalarga rozilik bildirganligi sifatida qabul qilinadi.

1.6. Noto‘g‘ri ma’lumot taqdim etish, shartlarni buzish yoki tranzaksiyalarni manipulyatsiya qilish harakatlari Aksiyadan chiqarib tashlanishga olib keladi.

1.7. Aksiyaning asosiy shartlarini bajargan har bir mijoz avtomatik ravishda Aksiya ishtirokchisiga aylanadi va sovrindorlar qatoridan joy olishi mumkin. Mijoz sovrinni olishdan faqat sovrin yutib olinganligi haqida unga xabar berilganidan so‘ng bosh tortishi mumkin. Hech bir tashkilot barcha mijozlarni Aksiya haqida xabardor qilish majburiyatini o‘z zimmasiga olmaydi. Aksiya shartlari bayon etilgan ushbu ommaviy oferta shartnomasini Ishtirokchi tomonidan alohida tasdiqlash talab etilmaydi.

II. AKSIYANI O‘TKAZISH MUDDATI

2.1. Aksiyaning boshlanish sanasi – 2026-yil 16-noyabr soat 00:00:01, tugash sanasi – 2027-yil 11-fevral soat 23:59:59 (Toshkent vaqti bilan), sovrinlarni topshirish muddatini ham qo‘shgan holda. Xaridlar ushbu qoidalarning 2.2-bandida ko‘rsatilgan bosqichlar davomida hisobga olinadi.

2.2. Aksiya muddati 2 (ikki) bosqichga bo‘linadi:

- **1-bosqich** – 2026-yil 16-noyabrdan 13-dekabrgacha (iPhone 18 Pro uchun yutuq o‘yini);
- **2-bosqich** – 2026-yil 14-dekabrdan 2027-yil 10-yanvargacha (MacBook Air uchun yutuq o‘yini).

2.3. Har bir bosqich g‘olibi ushbu bosqich tugaganidan keyin 5 (besh) ish kuni ichida aniqlanadi: 1-bosqich bo‘yicha – 2026-yil 18-dekabrdan, 2-bosqich bo‘yicha – 2027-yil 15-

yanvardan kechiktirmay. Aksiyaning yakuniy natijalari 2027-yil 15-yanvardan kechiktirmay sarhisob qilinadi.

III. AKSIYA ISHTIROKCHILARI

3.1. Aksiyada 18 yoshga to‘lgan, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan va Mastercard kartasi egasi hisoblangan jismoniy shaxslar ishtirok etishi mumkin.

3.2. Aksiyada Mastercard kartalarining amaldagi egalari, shuningdek, Aksiya davrida Mastercard kartasini olgan mijozlar ishtirok etadi.

3.3. Aksiyada Bank, Operator xodimlari, Aksiyani tashkil etishda bevosita ishtirok etuvchi pudratchilar va hamkorlar xodimlari ishtirok etmaydi.

3.4. Tashkilotchi qoidalar buzilganligi, Nomaqbul operatsiyalar belgilari yoki noto‘g‘ri ma’lumotlar taqdim etilganligi aniqlangan taqdirda Ishtirokchini Aksiyadan chetlatishga haqli.

IV. AKSIYADA ISHTIROK ETISH TARTIBI

4.1. Aksiyada ishtirok etish uchun Ishtirokchi Aksiya davrida Mastercard kartasi bilan To‘lov servisi orqali POS-terminallarda kontaktsiz usulda Xaridlarni amalga oshirishi lozim.

4.2. Ishtirok ushbu qoidalar shartlariga javob beradigan Xarid amalga oshirilganda avtomatik tarzda ta’minlanadi. Qo‘shimcha ro‘yxatdan o‘tish talab qilinmaydi.

4.3. Faqat Aksiya davrida amalga oshirilgan, bosqich yakunlari sarhisob qilinadigan vaqtga qadar bekor qilinmagan, qaytarilmagan va nizolashilmagan muvaffaqiyatli Xaridlar hisobga olinadi. Bitta Ishtirokchining Xaridlari uning barcha Mastercard kartalari bo‘yicha har bir bosqich uchun alohida jamlanadi; bir bosqichdagi Xaridlar summasi keyingi bosqichga o‘tkazilmaydi.

4.4. 1-bosqich shartlari (iPhone 18 Pro): bosqich davomidagi Xaridlar summasi 250 000 (ikki yuz ellik ming) so‘mdan (valyuta kartalari uchun 21 AQSh dollari / 19 yevro ekvivalentidan) kam bo‘lmagan Ishtirokchi yutuq o‘yinida 1 (bir) imkoniyatga ega bo‘ladi. Har bir keyingi to‘liq 250 000 (ikki yuz ellik ming) so‘m Xaridlar Ishtirokchiga 1 (bir) qo‘shimcha imkoniyat beradi.

4.5. 2-bosqich shartlari (MacBook Air): bosqich davomidagi Xaridlar summasi 500 000 (besh yuz ming) so‘mdan (valyuta kartalari uchun 42 AQSh dollari / 37 yevro ekvivalentidan) kam bo‘lmagan Ishtirokchi yutuq o‘yinida 1 (bir) imkoniyatga ega bo‘ladi. Har bir keyingi to‘liq 500 000 (besh yuz ming) so‘m Xaridlar Ishtirokchiga 1 (bir) qo‘shimcha imkoniyat beradi.

4.6. Masalan, 1-bosqichda 750 000 so‘mlik Xarid amalga oshirgan Ishtirokchi iPhone 18 Pro yutuq o‘yinida 3 (uch) imkoniyatga, 2-bosqichda 1 000 000 so‘mlik Xarid amalga oshirgan Ishtirokchi esa MacBook Air yutuq o‘yinida 2 (ikki) imkoniyatga ega bo‘ladi.

4.7. Ishtirokchi Aksiyaning har ikki bosqichida ishtirok etishi mumkin.

4.8. Quyidagi operatsiyalar Aksiyada hisobga olinmaydi:

- naqd pul yechish va kartalarni to‘ldirish;
- kartalararo, hisobvaraqlararo o‘tkazmalar, MoneySend va boshqa o‘tkazmalar;
- oflayn va onlayn QR-kod orqali to‘lovlar;
- internet orqali to‘lovlar, shuningdek, To‘lov servisidan foydalanmasdan plastik karta bilan amalga oshirilgan to‘lovlar;
- bekor qilingan, qaytarilgan, nizoli, firibgarlik bilan bog‘liq yoki Nomaqbul operatsiyalar;

– sun’iy ravishda bo‘lingan operatsiyalar, shu jumladan bitta savdo nuqtasida qisqa vaqt ichida ketma-ket amalga oshirilgan bir nechta xaridlar;
– ushbu qoidalarning 1-ilovasida ko‘rsatilgan MCC-toifalari bo‘yicha operatsiyalar.

V. SOVRIN JAMG‘ARMASI

5.1. Sovrinlar Hamkor tomonidan taqdim etiladi va Operator orqali faqat Aksiya g‘oliblariga topshiriladi.

Bosqich	Sovrin	Soni	Shart
1-bosqich	Apple iPhone 18 Pro, xotira 256 GB, rangi Burgundy	1 dona	Xaridlar summasi 250 000 so‘mdan
2-bosqich	Apple MacBook Air 13,6" M5 (10C CPU / 8C GPU), RAM 16 GB, xotira 512 GB, rangi Sky Blue	1 dona	Xaridlar summasi 500 000 so‘mdan

5.2. Sovrinlarning tarkibi, soni va tavsiflari Tashkilotchi tomonidan aniqlashtirilishi mumkin.

5.3. Sovrinlar g‘oliblarga faqat natura shaklida topshiriladi. Sovrinni almashtirish, qaytarish, pul bilan kompensatsiya qilish yoki uning pul ekvivalentini olish mumkin emas.

5.4. Sovrin g‘olibga ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan standart to‘liq komplektatsiyada, o‘zgartirishlarsiz topshiriladi.

5.5. Bitta Ishtirokchi butun Aksiya davomida ko‘pi bilan 1 (bitta) sovrin olishi mumkin. Agar Ishtirokchi avval Aksiya g‘olibi bo‘lgan bo‘lsa, sovrin olish huquqi zaxira g‘olibga o‘tadi.

VI. G‘OLIBNI ANIQLASH TARTIBI

6.1. Har bir bosqich yakunida Tashkilotchi ushbu bosqich shartlarini bajargan Ishtirokchilar ro‘yxatini ularning imkoniyatlari sonini hisobga olgan holda shakllantiradi.

6.2. G‘olib inson aralashuvi omilini istisno qiluvchi tasodifiy sonlar generatori dasturiy vositalaridan foydalangan holda tasodifiy tanlash usuli bilan aniqlanadi. Yutuq o‘yini Bankning rasmiy YouTube sahifasida jonli efirda o‘tkaziladi.

6.3. Yutuq o‘yini natijalari Tashkilotchining bayonnomasi yoki boshqa ichki hujjati bilan rasmiylashtiriladi.

6.4. Yutuq o‘yini davomida har bir sovrin bo‘yicha asosiy g‘olib bilan bir qatorda 2 (ikki) nafar zaxira g‘olib ham aniqlanadi. Sovrin olish huquqi Ishtirokchining ushbu qoidalarga muvofiqligi tasdiqlanganidan keyin yuzaga keladi.

6.5. G‘olib Bank tizimlaridagi telefon raqami yoki Bank belgilagan boshqa rasmiy usul orqali xabardor qilinadi.

6.6. G‘olib bilan telefon raqami orqali 3 (uch) marta bog‘lanishning imkoni bo‘lmagan, g‘olib sovrindan voz kechgan, zarur hujjatlarni taqdim etmagan yoki Aksiya shartlariga muvofiq kelmagan taqdirda sovrin navbatdagi zaxira g‘olibga o‘tadi.

6.7. Operatsiya bekor qilinishi, xarid qaytarilishi, Nomaqbul operatsiya aniqlanishi natijasida Ishtirokchining bosqichdagi Xaridlar summasi belgilangan miqdordan kamaygan taqdirda sovrin zaxira g‘olibga o‘tadi.

6.8. Yutuq o‘yini o‘tkazilayotgan vaqtda Ishtirokchining shaxsan hozir bo‘lishi shart emas.

6.9. Tashkilotchi Aksiya natijalari haqidagi ma’lumotlarni qonunchilik va Ishtirokchilarning roziligi doirasida o‘zining rasmiy manbalarida e’lon qilishga haqli.

VII. SOVRINNI TOPSHIRISH TARTIBI

7.1. Bank g‘olibni xabardor qiladi va uning sovrinni olishga roziligini oladi.

7.2. G‘olib xabarnoma olinganini tasdiqlashi va Operator belgilagan muddatda shaxsini tekshirish, sovrinni rasmiylashtirish va soliqni to‘lash uchun zarur bo‘lgan quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

- O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti (ID-kartasi);
- jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JShShIR);
- Operatorning alohida so‘roviga binoan boshqa hujjatlar.

7.3. Taqdim etiladigan hujjatlar va ma’lumotlar to‘liq va ishonchli bo‘lishi lozim. Operator javob xatida sovrinni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi va shaxsga doir ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlashga rozilik shaklini yuboradi.

7.4. Sovrin g‘olibga tekshiruvdan o‘tganidan va zarur hujjatlar imzolanganidan so‘ng Operator tomonidan Toshkent shahrida shaxsan, tegishli bosqich g‘olibi aniqlangan kundan boshlab 30 (o‘ttiz) kalendar kuni ichida, biroq 2027-yil 11-fevraldan kechiktirmay topshiriladi.

7.5. Sovrin topshiriladigan joyga yetib kelish bilan bog‘liq xarajatlar va boshqa shaxsiy xarajatlar g‘olib tomonidan mustaqil ravishda qoplanadi.

7.6. Bank va Operator g‘olibga sovrinni olish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni (shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining pasportini) olishda ko‘maklashmaydi.

VIII. AKSIYA ISHTIROKCHISINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

8.1. Ishtirokchining majburiyatlari:

- ushbu qoidalarga rioya qilish;
- ishonchli ma’lumotlarni taqdim etish;
- Tashkilotchi yoki Operatorning so‘roviga binoan shaxsini tasdiqlash;
- bildirishnomalarni o‘z vaqtida olish va sovrinni rasmiylashtirish uchun Tashkilotchi va Operator bilan hamkorlik qilish.

8.2. Ishtirokchining huquqlari:

- shartlar bajarilgan taqdirda Aksiyada ishtirok etish;
- Aksiya haqida ma’lumot olish;
- ushbu qoidalarning 1.7-bandiga muvofiq sovrinni olishdan bosh tortish.

IX. TASHKILOTCHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

9.1. Tashkilotchi ushbu qoidalar va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Aksiyani o‘tkazishi va g‘oliblarni aniqlashi shart.

9.2. Tashkilotchi quyidagi huquqlarga ega:

- operatsiyalar va Ishtirokchilarni ushbu qoidalarga muvofiqligi yuzasidan tekshirish;
- firibgarlik, sun’iy bo‘lish, texnik xatolar yoki Aksiya shartlarini suiiste’mol qilish belgilari bo‘lgan operatsiyalarni hisobdan chiqarish;

– sovrin olish huquqini tasdiqlash uchun Ishtirokchidan qo‘shimcha ma’lumot va hujjatlarni so‘rash;
– Ishtirokchi Aksiya shartlariga muvofiq kelmasligi aniqlanganda sovrin berishni rad etish.

9.3. Tashkilotchi ushbu qoidalarni bir tomonlama tartibda o‘zgartirish, shuningdek, qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda yoki Tashkilotchiga bog‘liq bo‘lmagan holatlar yuzaga kelganda Aksiyani to‘xtatib turish yoki tugatish huquqini o‘zida saqlab qoladi. O‘zgartirishlar ular Tashkilotchining rasmiy manbalarida e’lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.

9.4. Tashkilotchi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan holatlar va tartibda Aksiya to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, shuningdek, Aksiyani o‘tkazish doirasida olingan Ishtirokchining shaxsga doir ma’lumotlarini davlat organlariga taqdim etish huquqiga ega.

9.5. Tashkilotchi Aksiya ishtirokchilari oldida Aksiyada ishtirok etish bilan bog‘liq xarajatlar (shu jumladan, internet-trafik, telefon qo‘ng‘iroqlari va boshqa xarajatlar) uchun hech qanday majburiyatni o‘z zimmasiga olmaydi.

9.6. Tashkilotchi Aksiya ishtirokchilari oldida Aksiya qoidalari bilan to‘liq tanishib chiqmaslik yoki umuman tanishmaslik natijasida yuzaga keladigan oqibatlar, shuningdek, texnik nosozliklar (uyali aloqa, internet tarmoqlari, To‘lov servislari ishidagi nosozliklar va boshqalar) uchun javobgar bo‘lmaydi.

X. QO‘SHIMCHA SHARTLAR

10.1. Sovrinlar bo‘yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i Operator tomonidan soliq agenti sifatida O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq belgilangan tartibda hisoblanadi va to‘lanadi.

10.2. Aksiyada ishtirok etish Ishtirokchining Tashkilotchi tomonidan rasmiy manbalarda joylashtirilgan ushbu qoidalarga to‘liq va so‘zsiz roziligini, shuningdek, uning shaxsga doir ma’lumotlari Bank tomonidan qayta ishlanishiga va Aksiyani tashkil etish, g‘oliblarni aniqlash, sovrinlarni topshirish, soliqlarni to‘lash va natijalarni e’lon qilish maqsadida Operatorga uzatilishiga roziligini bildiradi. Bunday qayta ishlash, shuningdek, Ishtirokchining Tashkilotchi tomonidan o‘tkaziladigan reklama, marketing va boshqa dasturlar hamda aksiyalarda ishtirok etishi; ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar o‘tkazish; marketing, statistik va/yoki boshqa tadqiqotlarni amalga oshirish; tovarlar, ishlar va xizmatlarni targ‘ib qilish; Ishtirokchini Tashkilotchi tomonidan taklif etilayotgan yangi mahsulotlar, maxsus takliflar, reklama kampaniyalari, chegirma va bonuslar tizimlari haqida xabardor qilish maqsadida amalga oshiriladi. Ishtirokchi bilan bog‘lanish turli aloqa vositalari orqali amalga oshirilishi mumkin, jumladan, lekin shular bilangina cheklanmagan holda: pochta xabarlari, elektron pochta (e-mail) manziliga xabarlar, mobil telefon orqali SMS-xabarnomalar, push-bildirishnomalar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi “Reklama to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasida belgilangan reklama ma’lumotlarini o‘z ichiga olgan xabarlar. Shaxsga doir ma’lumotlar Tashkilotchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi talablarini bajarish maqsadida ham qayta ishlanadi.

10.3. Ishtirokchi yuqorida ko‘rsatilgan maqsadlarga erishish uchun zarur yoki maqsadga muvofiq deb topilgan har qanday harakatlarni o‘zining shaxsga doir ma’lumotlariga, o‘ziga aloqador boshqa har qanday ma’lumotlarga, jumladan, quyidagi ma’lumotlarga nisbatan amalga oshirishga rozilik beradi: familiyasi, ismi, sharifi; jinsi; tug‘ilgan yili, oyi va kuni (O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida, jumladan Soliq kodeksida belgilangan hollarda — shaxsni tasdiqlovchi hujjat

ma’lumotlari, jumladan pasport raqami, berilgan sanasi, beruvchi organ nomi hamda ro‘yxatdan o‘tish ma’lumotlari), shaxsiy identifikatsiya raqami, mobil telefon raqamlari, elektron pochta manzili, bank kartasi raqami, shuningdek, sovrinni olish uchun zarur bo‘lgan boshqa ma’lumotlar.

10.4. G‘olib zarur hollarda shaxsga doir ma’lumotlarni qayta ishlash, foto- va videosuratga olish, shuningdek, Aksiya bilan bog‘liq kommunikatsiyalarda o‘z ismi, familiyasining birinchi harfi va tasviridan foydalanishga alohida rozilik imzolaydi.

10.5. Ishtirokchi Tashkilotchiga ushbu qoidalarga muvofiq o‘z shaxsiga doir ma’lumotlarni qayta ishlashda jalb qilinadigan uchinchi shaxslarni mustaqil ravishda belgilash huquqini beradi va bunday jalb qilish Ishtirokchidan qo‘shimcha rozilikni talab qilmaydi. Shaxsga doir ma’lumotlarning qayta ishlanishi Tashkilotchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga qat’iy muvofiqlikda amalga oshiriladi.

10.6. Ishtirokchi ushbu qoidalarga rioya qilmagan taqdirda, Tashkilotchi bunday Ishtirokchini Aksiyada ishtirok etishdan bir tomonlama tartibda va so‘zsiz chetlatishga haqli. Shu bilan birga, Tashkilotchi ushbu Ishtirokchiga nisbatan amalga oshirilgan harakatlar bo‘yicha hech qanday tushuntirish yoki izoh berishga majbur emas.

10.7. Ishtirokchi o‘zi haqida noto‘g‘ri va/yoki ishonchsiz ma’lumotlarni ko‘rsatishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan barcha salbiy oqibatlar uchun to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.

10.8. Tashkilotchi quyidagi harakatlardan birini amalga oshirgan shaxslarni istalgan vaqtda bir tomonlama tartibda va sabablarini tushuntirmasdan Ishtirokchilar safidan chiqarishga haqli:

- Aksiyada ishtirok etish maqsadida soxta yoki sun’iy ravishda bo‘lingan operatsiyalarni amalga oshirishda gumon qilinayotgan shaxslar;
- firibgarlik harakatlarini sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxslar;
- ushbu qoidalarni buzgan boshqa shaxslar.

10.9. Mobil telefon raqamining muayyan shaxsga tegishliligi yuzasidan nizolar kelib chiqqan taqdirda, Tashkilotchi bunday nizolarga aralashmaydi. Bunday nizolarning barchasi nizolashuvchi tomonlar o‘rtasida mustaqil ravishda va o‘z hisobidan hal etiladi.

10.10. Mazkur Aksiya doirasida Ishtirokchilar va Tashkilotchi o‘rtasida yuzaga keladigan barcha nizolar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal etiladi. Agar kelishmovchiliklarni muzokaralar yo‘li bilan hal etish imkoni bo‘lmasa, nizolar Tashkilotchi joylashgan joydagi sud organlarida ko‘rib chiqiladi (shartnoma bo‘yicha sudlovga tegishlilik). Aksiyada ishtirok etish Ishtirokchilarning mazkur shartnoma bo‘yicha sudlovga tegishlilikka roziligini anglatadi.

1-ilova

AKSIYADA HISOBGA OLINMAYDIGAN MCC-KODLAR RO‘YXATI

MCC-kodlar	Toifa
4829, 6531, 6533, 6534, 6537	Pul o‘tkazmalari
7800, 7801, 7995, 9406, 9754	Qimor o‘yinlari
4900	Kommunal xizmatlar
4812, 4813, 4814, 4815, 4816, 4899	Telekommunikatsiya, internet va axborot xizmatlari
5046, 5047, 5285	Tijorat uskunalari
5933	Lombardlar
5960	To‘g‘ridan-to‘g‘ri marketing — sug‘urta xizmatlari
6010, 6011, 6012	Moliya institutlari
6050, 6051	Kvazi-naqd pul, xorijiy valyuta, o‘tkazmalar, yo‘l cheklari
6211	Qimmatli qog‘ozlar
6300, 6381, 6399	Sug‘urta va sug‘urta xizmatlari
6529, 6532, 6535, 6538, 6540	Moliya tashkilotlari, kartalararo o‘tkazmalar va hisobni to‘ldirish
7277, 7321, 7394, 7399	Boshqa xizmatlar va biznes-servislar
7513, 7519	Yuk furgonlari, tirkamalar va avtouylar ijarasi
8398, 8641, 8651, 8661, 8675	Jamoat, fuqarolik, siyosiy va diniy tashkilotlar
9211, 9222, 9223, 9311, 9399, 9402, 9405	Soliqlar, jarimalar, garovlar va davlat xizmatlari
9999	QR-to‘lovlar

2-ilova

USHBU OMMAVIY OFERTA SHARTLARINI KELISHGAN TARKIBIY TUZILMALAR

№	Lavozimi	F.I.Sh.	Imzo	Sana
1	Yuridik xizmat boshlig‘i	Karshiyev Akbar Xoljuayevich		
2	Protsessing markazi direktori	Rixsiyev Davron Abdurazzakovich		
3	Servis va marketing departamenti direktori	Saidakbarov Umidjon		